



## Madaniy tarbiyaning urushni oldini olishdagi ijtimoiy-falsafiy ahamiyati

**F.T.Shaymanov**

*O'zbekiston Milliy universiteti  
1-bosqich mustaqil tadqiqotchisi  
e-mail: [fozil.9296.shaymanov@gmail.com](mailto:fozil.9296.shaymanov@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada madaniy tarbiya va urushni oldini olishda muhim ijtimoiy-falsafiy mexanizm sifatida inson ongida tinchlik, bag'rikenglik va dialogga asoslangan qadriyatlarni shakllantirishi ochib berilgan. Shuningdek, madaniy tarbiya ziddiyatlarni zo'ravonlik emas, balki murosa va muloqot orqali hal etish tamoyillarini mustahkamlashi yoritilgan. Shu bilan birga, madaniy tarbiya jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, millatlararo totuvlik va mafkuraviy uyg'unlik ta'minlab, urush xavfini kamaytirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** axborot urushi, madaniy tarbiya, stereotiplar, ksenofobiya, madaniy ong, "maqsad sifatida" tarbiyalash g'oyasi, "Mas'uliyat etikasi" nazariyasi.

Madaniy tarbiya urushni oldini olishda chuqur ijtimoiy-falsafiy ahamiyatga ega bo'lgan kompleks jarayondir. U inson ongida tinchlikparvarlik, bag'rikenglik, hamjihatlik va o'zaro hurmat kabi umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish orqali jamiyatdagi ziddiyatlarning keskinlashuviga yo'l qo'ymaydi. Falsafiy nuqtai nazardan, madaniy tarbiya shaxsning axloqiy kamolotini ta'minlab, uni zo'ravonlikka emas, balki muloqot, murosa va konstruktiv fikrlashga yo'naltiradi. Natijada ijtimoiy munosabatlar tizimida kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan hal etish madaniyati qaror topadi.

Globalashuv sharoitida turli millat, din va madaniyat vakillari o'rtasidagi aloqalar kengayib borayotgan bir paytda madaniy tarbiyaning roli yanada ortadi. Chunki aynan u stereotiplar, ksenofobiya va radikal qarashlarning oldini olishga xizmat qiladi. Madaniy ong rivojlangan jamiyatlarda axborot manipulyatsiyasi, mafkuraviy bosim va provokatsiyalarga nisbatan immunitet kuchli bo'ladi, bu esa axborot urushlari sharoitida ham tinchlikni saqlashga yordam beradi. Zero, ijtimoiy-falsafiy jihatdan madaniy tarbiya jamiyat barqarorligining poydevori hisoblanadi. U ijtimoiy adolat, inson huquqlari va erkinliklariga hurmatni mustahkamlab, zo'ravonlikni legitim vosita sifatida inkor etadi. Shu tariqa madaniy tarbiya nafaqat urushlarning oldini olishga xizmat qiladi, balki uzoq muddatli tinchlik va barqaror rivojlanishning muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Madaniy tarbiya jamiyatda yashayotgan insonlarning axloqiy qadriyatlari, odob-axloqi, dunyoqarashi va ijtimoiy o'zaro munosabatlarini shakllantiruvchi jarayondir.

Ushbu tarbiya orqali insonlarda tinchlikni qadrlash, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, zo'ravonlik va nizolarni hal qilishda muloqot va murosa yo'llarini afzal ko'rish kabi ijtimoiy-ma'naviy tamoyillar singdiriladi. Shu bois, madaniy tarbiya urush va nizolar kelib chiqishining oldini olishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. I.Diatlova, T.Kondratyuk-Antonova fikricha: «madaniy tarbiya jamiyatda insonparvarlik, bag'rikenglik, empatiya, axloqiy mas'uliyat kabi qadriyatlarni shakllantiradi, bu esa urushlarga olib keluvchi radikalizm, begonalashuv va zo'ravonlik muhitini zaiflashtiradi»<sup>1</sup>. Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, madaniy tarbiya insonning axloqiy erkinligi va ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantiradi. Shu orqali odamlar o'zaro tushunishni va tinchlikni ustun qo'yishni afzal ko'radi. Bu jarayon jamiyatda barqarorlikni mustahkamlaydi, shuningdek, zo'ravonlikka qarshi madaniy immunitetni yaratadi.

Nemis faylasufi I.Kant insonni “maqsad sifatida” tarbiyalash g'oyasini ilgari surgan. Uning fikricha, inson o'zini va boshqalarni faqat vosita sifatida emas, balki axloqiy mavjudot sifatida anglamog'i lozim. Bu tamoyil madaniy tarbiya asosida urushga olib keluvchi degumanizatsiya (insonni inson deb tan olmaslik) jarayonlariga qarshi kuchli metafizik to'siq yaratadi. Shu bois, faylasuf I.Kant urushlarni nafaqat axloqiy, balki siyosiy jihatdan ham halokatli deb baholagan. Urushni “insof bo'lmaydigan g'alaba”ga olib kelishi va insoniyatni “katta qabristonga aylantirish” xavfi mavjud deya ta'kidlagan. Uning fikricha, madaniy tarbiya orqali shakllangan axloqiy, kosmopolitik fikrlash tinchlik o'rnatilishda muhim rol o'ynaydi. Madaniy tarbiya faylasuf I.Kant nazarida urushning asosiy sababi bo'lgan axloqiy zaiflik va o'zaro nizolardan himoyalanaadigan vositadir. Zero, fikrimizcha, madaniyat va ta'lim orqali insonlar global darajada majburiyatli, mas'uliyatli, tinchlikparvar shaxslar bo'lib shakllanadi.

Urush insoniyat tarixidagi eng murakkab ijtimoiy hodisalardan biri bo'lib, u faqat qurol bilan emas, balki ong, axloq va madaniyat orqali ham yuzaga chiqishini ta'kidlash zarur. Xususan, bir qator faylasuflarning zamonaviy falsafada urush va tinchlik muammosiga axloqiy yondashuvlari orqali yechim izlashi, bu borada muhim tendensiyalarni shakllanishiga olib kelmoqda. Aynan shunday yondashuvlardan biri nemis faylasufi **H.Jonas** tomonidan ilgari surilgan “Mas'uliyat etikasi” nomli nazariyasidir. Uning fikricha: “Har qanday harakatimiz u tug'diradigan kelajak oqibatlari oldida axloqiy baholanishi kerak”<sup>2</sup>. Jumladan, faylasuf H.Jonas urush xavfini faqat hozirgi avlodlar uchun emas, balki **kelajak insoniyat taqdiri** uchun ijtimoiy-axloqiy xavf sifatida ko'radi. Shuning uchun u, texnologik kuch va insoniyatning ongli mas'uliyati o'rtasida muvozanat bo'lishi zarur, deydi. Bu yerda madaniy tarbiya hal qiluvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. **Madaniy tarbiya** bu yerda faqat ma'lumot berish emas, balki ongli dunyoqarashni, axloqiy pozitsiyani, ijtimoiy mas'uliyatni shakllantiruvchi vosita sifatida tushuniladi. H.Jonas fikricha, insoniyat endilikda texnologik harakatlar orqali tabiatni butunlay o'zgartirish qobiliyatiga ega bo'lgan “xavfli mavjudot”dir. Shu bois, «har qanday kuch, qudrat va texnologik imkoniyatning

<sup>1</sup> Diatlova I., Kondratyuk-Antonova T. The Epistemic Battlefield: Philosophy of Information in Modern Warfare. // EU Journal of Humanities. 2025. – P. 67.

<sup>2</sup> Jonas H. The Imperative of Responsibility: In Search of an Ethics for the Technological Age. – University of Chicago Press, 1984. – P. 90.

qarshisida — **mas’uliyatli ong** turmog‘i lozim»<sup>3</sup>. Binobarin, uning nazariyasida madaniy tarbiya orqali **empatiya** (boshqalarni his qilish qobiliyati), **axloqiy ong** (adolat, haqiqat, javobgarlik), **tarixiy xotira** (urush fojialarini unutmashlik) va **kelajak avlodga hurmat** singari qadriyatlar singdiriladi. Bu qadriyatlar urushning oldini oluvchi “ichki axloqiy to‘siq”ni hosil qiladi. Shu jihatdan, H.Jonas axloqining asosi deb **kelajak avlodga zarar yetkazmaslik tamoyilini** ilgari suradi. Uningcha, insoniyatning har bir ijtimoiy yoki siyosiy qarori, xususan urush bilan bog‘liq harakatlar, shu prinsip asosida baholanishi kerak. Madaniy tarbiya bu prinsipni ta’lim, san’at, adabiyot, tarixiy voqealilar orqali ongga joylashtiradi. Bu madaniy tarbiya orqali yosh avlodga o‘rgatilishi zarur bo‘lgan falsafiy mezondir.

Hans Jonasning “Mas’uliyat etikasi” nazariyasi madaniy tarbiyani nafaqat ta’limiy vosita, balki **axloqiy va madaniy xavfsizlik kafolati** sifatida talqin etadi. Insoniyat faqat urushni to‘xtatish emas, balki urushga sabab bo‘luvchi ichki zo‘ravonlik, e’tiqodsizlik va mas’uliyatsizlikni tarbiya orqali yengmog‘i lozim. Bizning fikrimizcha, bu yondashuv urushning oldini olishda chuqur falsafiy asos beradi. Shu bilan birga, faylasuf ushbu nazariyasi orqali kelajak avlodlar oldidagi axloqiy javobgarlikni asoslashga harakat qilgan. Madaniy tarbiya ana shu mas’uliyat hissini ongli ravishda shakllantirishi, bu esa urush xavflarini ongli tarzda tan olgan holda harakat qilishga undashi ochib berilgan. Shuningdek, Hans Jonasning etikasi zamonaviy texnologik va ijtimoiy taraqqiyotning murakkab sharoitida insonning kelajak avlodlar oldidagi mas’uliyatini o‘rganishga qaratilgan.

Madaniy tarbiya, ayniqsa yoshlarni milliy-ma’naviy asoslarda tarbiyalash, raqamli savodxonlik bilan birgalikda axborot urushlariga qarshi samarali mudofaa tizimini yaralishiga olib keladi. Bu borada a) **media va axborot savodxonligi dasturlarini** maktab va oliy ta’limga integratsiya qilish; b) **milliy raqamli kontent platformalarini** rivojlantirish va targ‘ib qilish; s) **fakt-tekshirish va mediamakondagi axloqiy muloqot** yondashuvlarini pedagogik metodika sifatida tatbiq etish; d) **yoshlar ongida milliylik tuyg‘usini mujassamlashtirish** orqali raqamli propaganda tahdidiga qarshi madaniy immunitet hosil qilish mexanizmlari ishlab chiqilganligini alohida ta’kidlasak bo‘ladi.

Bizning fikrimizcha, milliy-ma’naviy tarbiya va raqamli savodxonlikning uzviy integratsiyasi axborot xavfsizligini faqat texnik muammo sifatida emas, balki chuqur madaniy va falsafiy jarayon sifatida hal etish imkonini beradi. Bu esa yosh avlodni global axborot makonida o‘zligini anglagan, tanqidiy fikrlaydigan va mafkuraviy jihatdan barqaror shaxs sifatida tarbiyalashning muhim sharti hisoblanadi.

Amerikalik faylasuf M.Nussbaum urush mavzusini muhokama qilganida, uni faqat siyosiy yoki harbiy jihatdan emas, balki insoniy tuyg‘ular va ularni boshqarish orqali ham tushuntiradi. U shunday deydi: *“Urushlar ko‘pincha nafrat, qo‘rquv va xorlik tuyg‘ularining hosilasi sifatida yuzaga chiqadi. Bu esa emotsional adolat yo‘qligini ko‘rsatadi”*<sup>4</sup>. Uning fikricha, agar madaniyat va ta’lim orqali insonlarda begonadan qo‘rqish emas, balki insoniyatga daxldorlik, hamdardlik singari tuyg‘ular tarbiyalansa, urushlar ehtimoli kamayadi. Shuningdek, adolatli jamiyat qurishda **ta’lim**

<sup>3</sup> Bunge M. Social Science Under Debate: A Philosophical Perspective. – University of Toronto Press, 1999. – P. 85.

<sup>4</sup> Nussbaum M. Not for Profit: Why Democracy Needs the Humanities. – Princeton University Press, 2010. – P.59.

va **san'at** muhim rol o'ynaydi. U san'at, adabiyot va tarixiy ong orqali emotsional tarbiyani rivojlantirish mumkinligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, drama, romanlar, musiqalar orqali inson o'z hayotiga va jamiyat hayotiga nisbatan empatiya bilan qarashni o'rganadi. Shu jihatdan olib qaraganda, adolatli jamiyat faqat qonunlar va iqtisodiy tenglik orqali emas, balki **insonlarning his-tuyg'ularini tarbiyalash** orqali ham shakllanadi. Bu jarayonda **madaniyat, ta'lim** va **san'at** emotsional adolatni tarbiyalashda asosiy vositalar hisoblanadi. **Urushlar** esa ko'pincha noto'g'ri emotsional tarbiya (begonadan qo'rqish, nafrat, millatchilik) natijasida yuzaga keladi. Aynan, **urush bilan bog'liq tanqid** g'azab va nafrat orqali kelayotgan harakatlarni, hatto "adolatli" deb qabul qilingan urushlarni ham, ko'pincha hissiy asosda bo'lishi mumkinligini va qattiq retributiv siyosatni tanqid qiladi. Urushlar insoniylikni buzadi va adolat tuyg'ularidan uzoq bo'lishi mumkin.

Global madaniy almashinuv natijasida madaniyatlar birlashadi, shuningdek ba'zi zo'ravonlikka moyil qadriyatlar kengayadi. Ammo madaniy tarbiya orqali fotosurat va qadriyatlarni jamiyatda keng tarqatish mumkin. Masalan YUNESCO xalqaro tashkiloti media literatlikni tahlil qiladi. Unga binoan agar jamoatchilik tarbiya qiluvchi bo'lsa, soxta, zo'ravonlikka moyil propagandani teskari effekt bilan almashtirishni keng yo'lga qo'yganligi e'tirofqa sazovordir. YUNESCO tomonidan olib borilayotgan media va axborot savodxonligi bo'yicha tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, agar jamoatchilik tanqidiy fikrlash va madaniy tahlilga asoslangan tarbiya orqali shakllantirilsa, soxta va zo'ravonlikka moyil propaganda o'zining kutilgan ta'sirini yo'qotadi va hatto teskari effekt, ya'ni rad etilish va tanqid ostiga olinishi holati yuzaga keladi. Bu esa madaniy tarbiyaning axborot xavfsizligidagi strategik rolini yaqqol namoyon etadi. Falsafiy jihatdan qaralganda, bu holat shuni anglatadiki, zo'ravonlikka qarshi eng samarali kurash majburiy cheklovlarda emas, balki ongni tarbiyalash, ma'naviy mezonlarni mustahkamlash va madaniy ongni yuksaltirish deb ta'kidlash mumkin. Demak, global madaniy almashinuv sharoitida jamiyatning barqarorligi uning axborot oqimlarini qanchalik ongli va axloqiy jihatdan idrok eta olishiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, madaniy tarbiya urushlarning oldini olishda hal qiluvchi ijtimoiy-falsafiy omil hisoblanadi. U insonlarda tinchlikparvarlik, bag'rikenglik va o'zaro hurmat qadriyatlarini shakllantirib, ziddiyatlarni zo'ravonliksiz hal etish madaniyatini rivojlantiradi. Natijada jamiyatda barqarorlik mustahkamlanadi, adovat va qarama-qarshiliklar kamayadi. Shu bois madaniy tarbiya uzoq muddatli tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashning muhim asoslaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Diatlova I., Kondratyuk-Antonova T. The Epistemic Battlefield: Philosophy of Information in Modern Warfare. // EU Journal of Humanities. 2025. – P. 67.
2. Jonas H. The Imperative of Responsibility: In Search of an Ethics for the Technological Age. – University of Chicago Press, 1984. – P. 90.
3. Bunge M. Social Science Under Debate: A Philosophical Perspective. – University of Toronto Press, 1999. – P. 85.
4. Nussbaum M. Not for Profit: Why Democracy Needs the Humanities. – Princeton University Press, 2010. – P.59